



1960 - 1970 YILLARDA BUXORO VILOYATIDA UY - JOY QURILISHI VA UNING IQTISODIY, MADANIY HAMDA ME'MORIY AHAMIYATI

Rivojov Sherzod Shoyimovich

Fan va texnologiyalar universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin O'zbekiston SSRda, xususan, Buxoro viloyatida uy-joy qurilishi va ijtimoiy sohani rivojlantirish jarayonlari tahlil qilingan. 1950–1980-yillar davomida respublikada qurilish ishlarining kengayishi, aholi turmush darajasining oshishi va shaharlashish jarayonlarining kuchayishi qayd etilgan. Shu bilan birga, Buxoro viloyatida qurilish sur'atlarining nisbatan sekin kechishi sabablari — iqtisodiy rivojlanish darajasi pastligi, qurilish materiallari yetishmovchiligi va iqlim sharoiti bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: Buxoro viloyati, uy-joy qurilishi, Sovet davri, iqtisodiy tiklanish, shaharlashish, hunarmandchilik, milliy me'morchilik, turar joy arxitekturasini, an'anaviy hovli, iqlim sharoiti, madaniy meros, aholi turmush darajasi.

СТРОИТЕЛЬСТВО ЖИЛЬЯ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ В 1960–1970-Е ГОДЫ И ЕГО ЭКОНОМИЧЕСКОЕ, КУЛЬТУРНОЕ И АРХИТЕКТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Ривожов Шерзод Шойимович

Исследователь Университета науки и технологий

Аннотация: В данной статье проанализированы процессы жилищного строительства и развития социальной сферы в Узбекской ССР после окончания Второй мировой войны, в частности в Бухарской области. Отмечено расширение масштабов строительных работ в республике в 1950–1980-е годы, повышение уровня жизни населения и усиление процессов урбанизации. Вместе с тем объяснены причины относительно медленных темпов строительства в Бухарской области — низкий уровень экономического развития, нехватка строительных материалов и климатические особенности региона.

Ключевые слова: Бухарская область, жилищное строительство, советский период, экономическое восстановление, урбанизация, ремесленничество, национальная архитектура, архитектура жилых домов, традиционный двор, климатические условия, культурное наследие, уровень жизни населения.

HOUSING CONSTRUCTION IN THE BUKHARA REGION IN THE 1960–1970S AND ITS ECONOMIC, CULTURAL, AND ARCHITECTURAL SIGNIFICANCE



**Rivojov Sherzod Shoimovich***Researcher at the University of Science and Technologies*

Abstract: *This article analyzes the processes of housing construction and the development of the social sphere in the Uzbek SSR after the end of the Second World War, particularly in the Bukhara region. It highlights the expansion of construction activities in the republic during the 1950s–1980s, the improvement of living standards, and the intensification of urbanization processes. At the same time, the relatively slow pace of construction in the Bukhara region is explained by the low level of economic development, shortages of construction materials, and the specific climatic conditions of the area.*

Keywords: *Bukhara region, housing construction, Soviet period, economic recovery, urbanization, craftsmanship, national architecture, residential architecture, traditional courtyard, climatic conditions, cultural heritage, living standards.*

Kirish: Ikkinchi jahon urushi tugagach, O‘zbekiston SSRda iqtisodiy tiklanish va ijtimoiy sohani rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishga aylandi. 1950 - yillar oxiri va 1960 - yillar boshidan boshlab uy - joy qurilishi, ma‘muriy binolar barpo etish, hunarmandchilikni qo‘llab - quvvatlash va aholi turmush sharoitini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shu jarayonda Buxoro viloyatida ham respublikaning boshqa hududlari qatori qurilish ishlarida birmuncha o‘zgarishlar yuz berdi.

Buxoro viloyati hududi O‘zbekistonning tarixiy - madaniy markazlaridan biri bo‘lib, bu yerdagi uy - joy qurilishi mahalliy iqlim, etnik tarkib va madaniy an‘analar ta‘sirida shakllangan. Uylar nafaqat turar joy sifatida, balki milliy turmush tarzining ifodasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

XX asrning 1960 – 1970 - yillari O‘zbekiston shaharlari tarixida ko‘p qavatli uylar jadal qurilishi bilan e‘tiborga sazovor davr bo‘ldi. Shu davrda shaharlar ko‘rkining o‘zgarishi, aholining turar joyga bo‘lgan ehtiyojining ortishi va sanoatlashuv bilan bog‘liq ravishda yangi ko‘p qavatli turar joylar paydo bo‘ldi. Aynan shu paytda Sovet Ittifoqi bo‘ylab sovuq iqlim hududlarida qurilgan uylardan deyarli farq qilmaydigan 3, 4 va 5 qavatli uylar loyihalashtirilib, O‘zbekiston shaharlarida ham qurilishi boshlandi [1]. Bu uylar jadal qurilish texnologiyalari asosida va tabiiy - iqlim sharoitiga mos tarzda loyihalashtirildi.

Buxoro viloyati uy - joylari an‘anaviy sharqona hovlilari tizimiga asoslangan bo‘lsa-da, Sovet davridagi qurilish siyosati ularni yangi tipdagi uylar bilan almashtirishga yo‘naltirildi. 1950 – 1980 - yillar oralig‘ida shahar va qishloqlarda davlat tomonidan qurilgan ko‘p qavatli turar joylar paydo bo‘ldi. Bu uylar tipik loyihalar asosida qurilib, butun mamlakat bo‘ylab bir xil shaklga ega bo‘lgan. Bunday uylarda me‘moriy bezak, ayvon yoki ichki hovli kabi milliy elementlar deyarli yo‘qoldi.



1960 - 1970 yillar davomida respublika bo'yicha uy - joy qurilishi hajmi sezilarli darajada o'sdi. Agar 1960 yilda foydalanishga topshirilgan uy - joylar umumiy maydoni 3 672 ming kvadrat metrni tashkil etgan bo'lsa, 1972 yilda bu ko'rsatkich 4 859 ming kvadrat metrga yetgan. Bu 12 yil ichida uy - joy qurilishi hajmining 32 foizga o'sganligini anglatadi. Bu o'sish aholi turmush darajasi yaxshilanishi va shaharlashish jarayonlarining kuchayishidan dalolat beradi [2].

Buxoro viloyatida esa mazkur davrda uy - joy qurilishi respublika ko'rsatkichlariga nisbatan nisbatan sekin kechgan. 1960 yilda viloyatda 316 ming kvadrat metr uy - joy foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 1972 yilda bu raqam 396 ming kvadrat metrga yetgan. Bu 25 foiz atrofidagi o'sishni ifoda etadi. Shu bilan birga, 1965 yilda ko'rsatkich 223 ming kvadrat metrgacha pasaygan bo'lib, bu o'sha yillardagi iqtisodiy qiyinchiliklar va qurilish materiallari tanqisligi bilan izohlanadi. Toshkent shahri va viloyatida qurilish sur'ati respublikada eng yuqori bo'lgan.

Masalan, 1960 yilda poytaxtda 325 ming kvadrat metr uy - joy qurilgan bo'lsa, 1972 yilda bu ko'rsatkich 703 ming kvadrat metrga yetgan, ya'ni qariyb ikki baravarga oshgan. Bu holat Toshkentning sanoat markazi sifatidagi o'rni, ichki migratsiya oqimi va davlat investitsiyalarining ko'pligi bilan bog'liq edi. Shuningdek, Farg'ona viloyatida ham qurilish hajmi yuqori bo'lib, 1960 yilda 418 ming kvadrat metrdan 1972 yilda 679 ming kvadrat metrgacha o'sgan. Samarqand viloyatida esa bu ko'rsatkich 357 ming kvadrat metrdan 412 ming kvadrat metrga yetgan [3].

Buxoro viloyati bu viloyatlardan ortda qolgan bo'lishiga bir nechta sabablar mavjud. Birinchidan, viloyat iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligi va an'anaviy hunarmandchilikka tayangan. Sanoat ishlab chiqarishining zaif bo'lgani sababli qurilish sohasiga yetarlicha sarmoya yo'naltirilmagan. Ikkinchidan, qurilish materiallari asosan Toshkent va Farg'ona vodiysidagi zavodlardan keltirilgan, bu esa transport xarajatlarini ko'paytirib, qurilish sur'atlarini sekinlashtirgan. Uchinchidan, Buxoro viloyati iqlimi qurg'oq va issiq bo'lgani uchun qurilish mavsumi cheklangan holda o'tgan. Shu bilan birga, Buxoroda qurilish ishlarida hunarmandlar faol ishtirok etgan. Urushdan keyingi yillarda mahalliy ustalar g'isht terish, suvoqchilik, bezakchilik va yog'och o'ymakorligi kabi sohalarida faol bo'lib, uy-joy qurilishida milliy an'analarni saqlab qolishda muhim rol o'ynaganlar. Qurilish ishlarining ko'payishi hunarmandchilik sohasi uchun yangi ish o'rinlari yaratdi va aholi daromadlarini oshirdi. Shu tariqa hunarmandchilik faqat madaniy emas, balki iqtisodiy ahamiyatga ham ega bo'ldi.

Buxoro viloyatida uy - joy qurilishi sur'atlarining nisbatan sekin bo'lishi iqtisodiy rivojlanish darajasi pastligi va markazdan yetarlicha mablag' ajratilmasligi bilan izohlanadi. Biroq, bu jarayon aholi turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan: yangi uylar, mahallalar va ijtimoiy ob'ektlar qurilishi natijasida sanitar - gigienik va maishiy sharoitlar yaxshilandi. Shu bilan birga, hunarmandchilik sohasi ham rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ldi.





Toshkent va Farg'ona kabi sanoat hududlarida qurilish hajmlari yuqori bo'lgan bo'lsa, Buxoroda hunarmandchilikning milliy xususiyatlari ustuvor bo'lib qoldi. Shu jihatdan qaralganda, Buxoro viloyatidagi uy-joy qurilishi nafaqat iqtisodiy, balki madaniy ahamiyatga ham ega bo'lgan. Bu holat aholi turmush darajasi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lgan. Buxoro viloyati iqlimi yozda issiq va quruq, qishda esa nisbatan sovuq bo'lgani uchun uy-joylar qalin gilibop devorlar bilan quriladi. Devorlar loy va paxta chigiti aralashmasidan tayyorlangan bo'lib, ular issiqni yaxshi ushlab turadi va yozda salqinlikni ta'minlaydi. Tomlar, odatda, tekis qilib quriladi, chunki bu hududda yomg'ir kam yog'adi. Shuningdek, uyning muhim qismi hisoblangan ayvon issiqdan soya beradi va yoz faslida dam olish hamda mehmon qabul qilish uchun qulay joy vazifasini bajaradi.

O'zbekistondagi turar joy arxitekturasini turli mintaqalarning tabiiy va madaniy sharoitlariga bog'liq ravishda shakllangan. Uning asosiy uchta turi ajratiladi: Farg'ona, Buxoro va Xorazm [4].

Buxoro turi o'rta tip hisoblanadi. Unda ichida hovlisi bor siqiq uylar quriladi, devorlari baland va tashqi tomonidan yopiq bo'ladi. Buxoro uylari boshqa mintaqalarning ayrim xususiyatlarini o'z ichiga oladi va markaziy hududlarda keng tarqalgan. Hovli ichki tomondan bezakli bo'lib, uy aholisi uchun qulaylik va himoyani ta'minlaydi. Farg'ona turiga xos uylar odatda keng hovlisi va ayvonlari (ochiq ayvonchalari) bilan ajralib turadi. Uylar gulzorlar orasida joylashgan bo'lib, ko'pincha yog'ochdan o'yma va naqshlar bilan bezatilgan. Bu tur iqlimi yumshoq va namlik darajasi yuqori hududlarda rivojlangan bo'lib, uylarning tarkibi va bezaklari tabiat bilan uyg'unlashgan. Xorazm turi esa iqlimi qattiq hududlar uchun moslashgan. Uylar devorlari juda qalin va tirqishlari kam bo'lib, bu uyni yozda salqin, qishda esa issiq saqlashga xizmat qiladi. Qurilishda asosan xom g'isht yoki paxsa materiallari qo'llaniladi. Bu turning uylari geografik va madaniy sharoitlarga javob beradigan qat'iy va aniq shakldagi me'morlik an'alarini namoyon etadi. Shuningdek, Shahrisabz turi butunlay mustaqil arxitektura turi sifatida alohida ahamiyatga ega. Uning uylari tog'li va tekislik hududlariga mos ravishda qurilgan. Toshkent, Samarqand, Qarshi va boshqa shaharlardagi uylar esa asosiy turlar o'rtasidagi o'tish shaklini aks ettiradi va turli arxitektura elementlarini uyg'unlashtiradi.

Buxoro uylarida turar joy qismi odatda ikki asosiy xonaning joylashishi bilan ajralib turadi: yozgi xona (xonai - tobistoni), odatda shimol tomonga qaralgan, va qishgi xona (xonai - zimistoni), esa janub, sharq yoki g'arb tomonga yo'naltirilgan. Kambag'al uylarda odatda faqat shu ikki xona bilan cheklanilar edi, boy uylarda esa yana bir necha xona qo'shiladi. Ushbu xonalarning nomlari ko'pincha oddiygina xonoxoyi - go'sha deb nomlangan [5]. Bu uylar iqlim sharoitlariga moslashgan holda qurilgan: devorlar gilibop va loy - somon aralashmasidan, tomlar tekis qilib tayyorlangan. Xonalarning yo'nalishi - yozgi va qishgi xonalarning shimol va janub tomonga qaralishi - aholining turmush tarzi va iqlim talablariga



muvofiglashtirilganligini ko'rsatadi. Shu tariqa, Buxora uy me'morchiligi nafaqat turar - joy ehtiyojlarini qondirgan, balki shaharning madaniy va milliy an'analarini ham saqlab qolgan. Ushbu uylar orqali mahalliy hunarmandchilik va me'morchilik an'analari na faqat estetik, balki iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.ражабов Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб Тошкент“**О‘zbekiston**” 2019. Б 303.
2. Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет Советской власти. Юбилейный стат. ежегодник. – Ташкент, 1969. – С. 242
3. Ю.В.Бромлей. И.С.гурвич. Современные этнические процессы в СССР.- Москва,1975. – С.191.
4. В. Л. Воронина Узбекское народное жилище. – С. 7
5. XX асрнинг 50 - 70 йилларда Ўзбекистон
<https://tavorix.islamonline.uz/site/item/413>